

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UDK: 336.226.Ya 60**

YANGIBOYEV HUSNIDDIN ABDUMAJITOVICH

**BEVOSITA SOLIQLARNING BUXGALTERIYA HISOBI VA SOLIQQA
TORTISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit”
08.00.08 – “Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit”

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini
olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy maslahatchi: Kurbanov Ziyat Niyazovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Toshkent – 2025

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB BEVOSITA SOLIQLARNING BUXGALTERIYA HISOBI VA SOLIQQA TORTISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	15
1.1-§. Soliqqa tortishning zamonaviy nazariyalari: bevosita va bilvosita soliqlar nisbat nazariyasi.	15
1.2-§. Bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodlarini ilmiy-nazariy asoslari.	32
1.3-§. Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi va metodologiyasining nazariy-huquqiy asoslari.	51
Birinchi bob bo'yicha xulosalar	80
II BOB BEVOSITA SOLIQLARNING BUXGALTERIYA HISOBINI AMALDAGI HOLATI TAHLILI	81
2.1-§. Bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobini amaldagi holati.	81
2.2-§. Soliq organlarida soliqlar hisobini tashkil etish masalalari.	104
2.3-§. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i mexanizmini samarali shakllantirish usullari.	121
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	139
III BOB BEVOSITA SOLIKLARNI BUDJETGA UNDIRISH MEXANIZMINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	141
3.1-§. Davlat budjetiga soliq tushumlarining barqarorligini ta'minlashda foyda solig'i mexanizmi tahlili.	141
3.2-§. Jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishning amaldagi holati tahlili.	162
3.3-§. Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash va undirish mexanizmi tahlili.	176
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	194
IV BOB BEVOSITA SOLIQLARNING BUXGALTERIYA HISOBI VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	196
4.1-§. Foydani soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish.	196
4.2-§. Bevosita soliqlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish.	214
4.3-§. Bevosita soliqlar tahlilida ekonometrik modellardan foydalanish.	244
To'rtinchi bob bo'yicha xulosalar	262
XULOSA	264
FOYDALANILGAN ADABIYETLAR RO'YXATI	267
ILOVALAR	277

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish, avvalo, fiskal siyosatning samaradorligini oshirish, soliq tushumlarining prognoz qilinuvchanligini ta'minlash va korxonalar faoliyatida moliyaviy shaffoflikni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy buxgalteriya standartlariga asoslangan metodologik yondashuvlar bevosita soliqlarning (daromad solig'i, foyda solig'i va boshqalar) aniq hisobini, soliqqa tortish bazasining to'g'ri aniqlanishini va soliq yukining adolatli taqsimlanishini kafolatlaydi. "Korporativ daromad solig'i uchun buxgalteriya va audit standartlarini takomillashtirish moliyaviy shaffoflikni oshiradi va daromadni boshqa yurisdiksiyalarga o'tkazish imkoniyatlarini kamaytiradi, bu esa soliq to'lash intizomini va tushumlar samaradorligini oshiradi"¹. "Germaniyada joriy etilgan standartlashtirilgan va raqamlashgan soliq hisobot tizimi biznes uchun ma'muriy yukni sezilarli darajada kamaytirdi va soliq majburiyatlarini real vaqt rejimida kuzatish imkonini yaratdi. AQShda daromad solig'i hisobini zamonaviylashtirish soliq prognozlashni yaxshiladi va auditorlik bahslarini minimallashtirdi"². Shu bilan birga, metodologiya ning takomillashuvi soliq xatoliklarini kamaytirish, audit tizimini soddalashtirish, xalqaro moliyaviy hisobdorlik standartlariga moslashish va investitsion jozibadorlikni oshirish orqali iqtisodiy faollikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish va davlat budjeti barqarorligini ta'minlash imkoniyati kengayadi.

Jahonda iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda budget-soliq mexanizmining ahamiyatini oshirish, bevosita va bilvosita soliqlarning optimal nisbatini shakllantirish borasida muhim tadqiqotlar olib borilmoqda. Bevosita soliqlarning

¹ Improving the accounting and auditing standards for corporate income taxation increases transparency and reduces profit-shifting opportunities, thereby enhancing tax compliance and revenue collection efficiency. OECD, 2022. Corporate Tax Statistics: Fourth Edition. Paris: OECD Publishing.

² A standardized and digitized tax accounting framework adopted in Germany has significantly reduced administrative burdens for businesses and improved real-time monitoring of tax liabilities.- Federal Ministry of Finance of Germany, 2021. Digitalisation of Tax Administration Report.; Modernizing income tax accounting rules in the U.S. has facilitated better tax forecasting and minimized audit disputes. - Internal Revenue Service (IRS), 2020. Taxpayer Compliance Trends and Forecasting.

budjet tushumlariga ta'sirini kuchaytirish, aholi va ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy faolligini rag'batlantirish, mamlakat hududlaridagi iqtisodiy faoliyatning turli tafovut va sharoitlaridan kelib chiquvchi tengsizlik holatlarini yumshatish, mulkdan tejamli va samarali foydalanish, aholi daromadlari o'rtasidagi tabaqalanish darajasini tartibga solish, soliq tushumlarini prognozlash va ularning yig'iluvchanlik darajasini oshirish kabilar bu boradagi tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodologiyasini tartibga solish orqali soliqqa tortish mexanizmi samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Iqtisodiy sub'ektlarning samarali va tejamkor faoliyatini rag'batlantirish, jismoniy va yuridik shaxslarning daromad va foydani ko'paytirishdan manfaatdorligini oshirish, budjetni soliq tushumlari bilan to'ldirishga undovchi moslashuvchan mexanizmni yaratishga harakat qilinmoqda. Ushbu sa'y-harakatlar orqali bevosita soliqlarni hisoblash metodikasining ishlab chiqilishi, soliqlar va soliqqa tortish mexanizmining takomillashuvi, xalqaro standartlar amaliyotga joriy etilishi munosabati bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy va soliq hisobotlarining muvofiqlashuvi kabi jarayonlarni samarali tashkil etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Mazkur vazifalarni izchil hal etish, tadbirkorlik sub'ektlariga foyda solig'i hisobini takomillashtirish, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bo'yicha soliqni hisoblash, jismoniy shaxslar daromad solig'ini belgilash va to'lashda yengilliklar berish kabi muammolarning ilmiy yechimini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 13-fevraldagi F-5214-son "Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi, 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son "O'zbekiston Respublikasining 2024-yil uchun mo'ljallangan Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunining ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 30-avgustdagi PQ-364-son

“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Jahonda iqtisodiy o‘rishni tarkibiy islohotlarni izchil davom ettirish, shuningdek, fiskal va monetar siyosatning o‘zaro muvozanatli yuritish orqali makroiqtisodiy barqarorlikning ta‘minlash, bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning to‘g‘ri va samarali tashkil etishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar yetakchi universitet va ilmiy markazlarida, jumladan, Levi iqtisodiyot instituti (AQSh), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development); Xalqaro soliq va taraqqiyot markazi (The International Centre for Tax and Development, ICTD, AQSh); Fiskal tadqiqotlar instituti (Institute for Fiscal Studies, Buyuk Britaniya); Moliya bo‘yicha amaliy tadqiqotlar markazi (The Center for advanced research in Finance, CARF, Yaponiya); Japan International Cooperation Agency (JICA, Yaponiya); Koreya davlat moliyasi instituti (The Korea Institute of Public Finance, Koreya); The University of Faisalabad (Pokiston); Xalqaro Yevropa ta’lim markazi (Centre International de Formation Européenne (CIFE) Fransiya); Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti (Rossiya), **Toshkent davlat iqtisodiyot**

³ Schroeder, Gocht, and Britz 2015, and Economic Research Service (ERS); Agricultural taxation under structural adjustment [2008]; Current fiscal issues fiscal monitor: policies for the recovery (2019), Fiscal Monitor: [Fiscal Policy from Pandemic to War](#) (2020); Отчет по форме № 2-НК. [Электронный ресурс]. – официальный сайт. – Режим доступа: Отчет по форме № 2-НК за 2018-2022 годы | ФНС России; <https://www.whitehouse.gov/omb/budget/historical-tables/>; <https://iqdecision.com/nalogi-v-s-sh-a-obzor/>;

universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti (O‘zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Jahonda bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirishga oid tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalarga erishilgan, jumladan: Rossiya Federatsiyasida 2018-2024-yillarda o‘tkazilgan soliq tekshiruvlari soni va natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlari tahlil qilingan (Rossiya Federatsiyasi); fiskal siyosatning bosqichlari, doimiyliigi va o‘zgaruvchanligi davlat xarajatlariga ta’sir etishi aniqlangan; davlat xarajatlari doimiyliigi va o‘zgaruvchanligi tadbirkorlarning bozordagi faolligi va iqtisodiy o‘sishga ta’siri asoslangan (AQSh); aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchi buxgalteriya hisobi sub’ektlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni soliq va statistika organlariga har chorakda taqdim etish talabi bekor qilish hamda aylanmadan olinadigan soliqni qat’iy belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydigan tadbirkorlik sub’ektlari yillik moliyaviy hisobotlarni soliq organlariga topshirish majburiyatidan ozod etish, jismoniy shaxslar tomonidan yoshidan qat’i nazar farzandlarining respublika ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishlari uchun yo‘naltiriladigan to‘lovlar soliq solinmaydigan daromadlar toifasiga kiritish asoslangan (O‘zbekiston).

Jahonda bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning nazariy, normativ-huquqiy, uslubiy va amaliy asoslarini **takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan:** bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning normativ-huquqiy asoslari takomillashtirish; yirik korxonalar faoliyati natijalarini buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini takomillashtirish; tadbirkorlik faoliyati hisobining metodologiyasini MHXS (IFRS) asosida takomillashtirish; bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning metodologiyasini tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirish; bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning **nazariy va normativ-huquqiy asoslarini shakllantirish.**

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bevosita soliqlarni buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning nazariy, uslubiy hamda amaliy masalalari xorijlik

iqtisodchi olimlardan Dj.Lokk, A.Smit, Dj.M.Keyns, I.A.Mayburov, A.M. Sokolovskaya, A. N. Gurev, J.Sismondi, N.Turgenev, B. Nidlz, X.Anderson, D.Kolduell, M.R. Metys, X.B. Perera, D.Morse, J.Zimmerman va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁴.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar E.Gadoev, N.Qo‘zieva, N.Ashurova, J.O‘rmonov, S.Xudoyqulov, A.Islamkulov, N.Haydarov, B.Toshmurodova, B.Xasanov, Z.Qurbonov, K.Xotamov, S.Tashnazarov, N.Rizaev, A.Ibragimov, K.Urazov va boshqalarning ilmiy ishlarida bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishning nazariy va ilmiy-uslubiy jihatlari, qisman, o‘z aksini topgan⁵. Xususan, A.Islamkulov tomonidan budjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. F.Isaev o‘zining ilmiy ishida soliq tushumlarining tahlilini tadqiq etgan va ilmiy takliflar bergan.

Biroq, yuqorida qayd etilgan iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida bevosita soliqqa tortishni takomillashtirish masalalari kompleks tarzda o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Soliq qo‘mitasi huzuridagi sobiq Fiskal institutning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq

⁴John Locke Some Considerations of the Consequences of the Lowering of Interest and the Raising the Value of Money. 1692. (Collected Works. 1824,) 88-93 c.; Кулишер И.М. Очерки финансовой науки. Вып.1. - Петрофад: Наука и Школа, 1919. – 121-с.; Кейнс Дж. Общая теория занятости, процента и денег. – М.: Прогресс. 1978. с. -210. : Майбуров И.А. Теория налогообложения./ И.А.Майбуров, А.М. Соколовская. – М.: ЮНИТА-ДАНА, 2020.-591 с.:Гурьев А. Н. Прямые и косвенные налоги. PRO и CONTRA. С-Петербург, 1893: Нидлз Б. и др. Принципы бухгалтерского учета / Б. Нидлз, Х. Андерсон, Д.Колдуэлл: Пер. с англ./ Под ред. Я.В. Соколова. - М: Финансы и статистика,2003, с.13.: Мэтьюс М.Р.Перера, М.Х.Б. Теория бухгалтерского учета. Учебник./ Пер. с англ./ Под ред. Я.В. Соколова. И. А. Смирновой.- М: Аудит, ЮНИТИ, 1999, с.65: Daic. C.Morse, Jeroid L.Zimmerman. Menageral Accounting. – Irwin, 1997. P. 12.:

⁵ Yuridik shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. / E.Gadoev, N. Qo‘zieva, N.Ashurova, J.O‘rmonov. T.: IQTISOD-MOLIYA. 2013.-616 b: S.Xudoyqulov, Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent .2019. : Islamkulov A.X. Budjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini ta’minlash yo‘llari: i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – T.: BMA, 2012. - 21 b.: Haydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. – T.: Akademiya, 2007. – 54 b.: B.Toshmurodova, O.Xamdorov. Moliyaviy menejment TMI,-T.: “Iqtisod-Moliya” 2012. 160b: “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2018 yil.: Xotamov K., Qurbonov Z. Soliqlar tahlilini takomillashtirish masalalari. // “Biznes-Ekspert” ilmiy-amaliy, iqtisodiy oylik jurnali. : №8(92)-2015.: Tashnazarov S.N. (2016) Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobot: muammo va yechimlar. Monografiya. T.: “Navro‘z” nashriyoti, 31-47-b. : O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 8-son 20.05.2022: № 11 (2023): Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil : www.soliqvahayot.uz/packet/maqolalar/Maqolalar_2024_1_soni.pdf

“Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma’muriyatchiligi va xalqaro soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish” mavzusida tadqiqot doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bevosita soliqlar buxgalteriya hisobi hujjatlarini saqlash muddatlarini zamonoviy talablar asosida takomillashtirish va bevosita soliqlar hisobini MHXS asosida takomillashtirish bo’yicha takliflar berish;

jismoniy shaxslar uchun daromad solig’i bo’yicha soliq solinmaydigan toifasini shakllantirish bo’yicha takliflar ishlab chiqish;

bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortishni ilmiy tadqiq etish natijalari asosida soliq qonunchiligiga oid me’yoriy-hujjatlarni takomillashtirish bo’yicha amaliy takliflar ishlab chiqish;

soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirishning bevosita soliqlar bazasini aniqlash, hisoblash va budjetga to’lash mexanizmiga ta’siri bo’yicha asoslangan takliflar ishlab chiqish;

foyda solig’i to’lashni kechiktirish yoki bo’lib-bo’lib to’lash imkoniyatini berish shartlarini asoslash;

foyda solig’i bo’yicha har oyda bo’nak to’lovlarini to’lashi lozim bo’lgan tadbirkorlik subyektlari daromadlarining ruxsat etilgan miqdorini oshirish takliflar ishlab chiqish;

ilk marotaba foyda solig’ini to’lashga o’tgan aylanmadan olinadigan soliq to’lovchilarni rag’batlantirish bo’yicha takliflarni asoslash;

bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida moliyaviy va soliq hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashtirish yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida bevosita soliqlar buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqa tortish metodologiyasi bilan bog‘liq moliyaviy va iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida taqqoslash, dialektik yondashuv, tizimli tahlil, shuningdek, iqtisodiy usullar, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yuridik shaxslar ish haqi shaklidagi daromadlardan ijtimoiy soliq summasini buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida ish haqi shaklidagi daromadlardan ijtimoiy soliq summalari xarajatlarni hisobga olish hisobvaraqlarida (2000, 2300, 2500, 2600, 2700, 9400) 6520-“Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar” hisobvarag‘i krediti bo‘yicha aks ettirish taklifi asoslangan;

foyda solig‘i bazasini to‘g‘ri aniqlash maqsadida asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning harakati hamda amortizatsiya xarajatlarini ko‘chmas mulk guruhlariga bo‘yicha hisobotda ko‘rsatish taklifi asoslangan;

aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchi buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni soliq va statistika organlariga har chorakda taqdim etish talabi bekor qilish hamda aylanmadan olinadigan soliqni qat‘iy belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydigan tadbirkorlik subyektlari yillik moliyaviy hisobotlarni soliq organlariga topshirish majburiyatidan ozod etish taklifi ishlab chiqilgan;

mahsulot tannarxini hisoblashda, amortizatsiya qilinadigan aktivning alohida guruhini tashkil etishi va amortizatsiya ajratmalarining har yilgi summasi, soliq to‘lovchining xohishiga ko‘ra belgilanadigan amortizatsiya normasini qo‘llash yo‘li bilan biroq to‘plangan xarajatlar summasining 33 foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda hisoblab chiqarilishi lozimligi asoslangan;

foyda solig‘i bo‘yicha har oyda bo‘nak to‘lovlarini to‘lashi lozim bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari daromadlarining ruxsat etilgan miqdorini 5 mlrd so‘mdan 10 mlrd so‘mgacha oshirish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

foyda solig'ini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish shartlari asoslangan, shuningdek, mansabdor shaxs mazkur holat bo'yicha bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatidan kalendar yil davomida birinchi marta foydalanayotgan bo'lsa, unda soliq qarziga olti oy davomida foizlar ham hisoblanmasligi takliflari berilgan;

davlat soliq xizmati organlariga elektron tarzda topshirilgan moliyaviy, soliq hisobotlar shuningdek soliq organining avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali elektron shaklda rasmiylashtirilsa hujjatlar majburiy saqlanmaslik hamda ularni arxivga topshirmaslik kerakligi asoslangan;

foyda solig'i bazasini to'g'ri aniqlash maqsadida barcha xarajatlar hujjatlar bilan tasdiqlanishi shartligi asoslangan;

jismoniy shaxslar tomonidan yoshidan qat'i nazar farzandlarining respublika ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishlari uchun yo'naltiriladigan to'lovlar soliq solinmaydigan daromadlar toifasiga kiritish taklifi berilgan;

o'zini o'zi band qilgan shaxslarning mehnat faoliyati natijasida olingan daromadlari, shu jumladan talabalarining O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlari hududida pullik o'quv kurslarini, sport to'garaklarini tashkil etishdan va boshqa ta'lim xizmatlarini ko'rsatishdan olingan daromadlari mehnat faoliyati natijasida yoki tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlariga ushbu daromadlar soliq davrida yuz million so'mdan oshgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliq solish bo'yicha takliflari berilgan;

2023-yil 1-yanvardan 2026-yil 1-yanvarga qadar O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi, uning hududiy bo'linmalari, "O'zbekiston Professional futbol ligasi" jamoat birlashmasi, O'zbekiston futbol hakamlari markazi va professional futbol klublari o'zi jalb qilgan chet el mutaxassislari va futbolchilarining daromadlaridan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilish bo'yicha bergan taklifi asoslangan;

aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi tadbirkorlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, 2024-yildan boshlab aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar ixtiyoriy asosda qat'iy belgilangan miqdorda soliq to'lashni tanlashi,

ya'ni jami daromad summasi 500 million soʻmdan oshmaganda yiliga 25 million soʻmdan, agar jami daromad summasi 500 million soʻmdan oshganda yiliga 34 million soʻm toʻlashni tanlashi, qatʼiy belgilangan summadagi soliq stavkasini qoʻllash boʻyicha bergan taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining haqqoniyligi ishda qoʻllanilgan yondashuv hamda takliflarning maqsadga muvofiqligi, maʼlumotlarning ishonchli rasmiy manbalardan olinganligi, shuningdek, tadqiqotlar meʼyoriy-huquqiy-hujjatlar va tahlil, maʼlumotlarga asoslanganligi hamda xulosalar va takliflarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ulardan bevosita soliqlarni hisoblash va undirishning nazariy-uslubiy asoslarini boyitishda, soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida nazariy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qoʻmitasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan soliq amaliyotini takomillashtirish, jumladan, bevosita soliqlar hisobini yuritish va soliq hisobotlarini tuzish jarayonlarini soddalashtirish va qulaylashtirish, soliq toʻlovlarining undiruvchanlik darajasini oshirish, soliq funksiyalari samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bevosita soliqlarning buxgalteriya hisobi va soliqqa tortish metodologiyasi boʻyicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalar asosida:

yuridik shaxslar ish haqi shaklidagi daromadlardan ijtimoiy soliq summasini buxgalteriya hisobini takomillashtirish maqsadida ish haqi shaklidagi daromadlardan ijtimoiy soliq summalari xarajatlarni hisobga olish hisobvaraqlarida (2000, 2300, 2500, 2600, 2700, 9400) 6520-“Maqsadli davlat jamgʻarmalariga toʻlovlar” hisobvaragʻi krediti boʻyicha aks ettirish borasidagi taklifi Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda 661-son qarori bilan

tasdiqlangan “Ijtimoiy soliqni taqsimlash, pensiya va boshqa to‘lovlarni to‘lash uchun ajratilgan xarajatlarni qoplash tartibi to‘g‘risida NIZOM” da o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 7-martdagi №12-257-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ijtimoiy soliq xarajat sifatida buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettiriladi va foyda solig‘ining bazasini to‘g‘ri hisoblanishi ta’minlangan;

foyda solig‘i bazasini to‘g‘ri aniqlash maqsadida asosiy vosita va nomoddiy aktivlarning harakati hamda amortizatsiya xarajatlarini ko‘chmas mulk guruhlarini bo‘yicha hisobotda ko‘rsatish borasidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2023-yil 27-iyundagi “Soliq hisobotining shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorning 1-9-ilovalariga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi 42-son buyrug‘i bilan foyda solig‘i bo‘yicha soliq hisoboti shakliga o‘zgartirish kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 7-martdagi №12-257-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida foyda solig‘i bo‘yicha soliq hisoboti shaklini takomillashtirish va foyda solig‘i bazasini aniqlashtirish imkoni yaratilgan;

aylanmadan olinadigan soliq to‘lovchi buxgalteriya hisobi subyektlari tomonidan moliyaviy hisobotlarni soliq va statistika organlariga har chorakda taqdim etish talabi bekor qilish hamda aylanmadan olinadigan soliqni qat’iy belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydigan tadbirkorlik subyektlari yillik moliyaviy hisobotlarni soliq organlariga topshirish majburiyatidan ozod etish bo‘yicha bergan taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-noyabrdagi “Hisobot taqdim etish va arxiv hujjatlarini saqlash tartib-taomillarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-419-son Qarorida o‘z aksini topgan va amaliyotga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining 2023-yil 20-maydagi №15-54280-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aylanmadan olinadigan soliqni qat’iy belgilangan soliq stavkasi bo‘yicha to‘laydigan tadbirkorlik subyektlari yillik moliyaviy hisobotlarni soliq organlariga topshirish majburiyatidan ozod etilgan;

mahsulot tannarxini hisoblashda, amortizatsiya qilinadigan aktivning alohida guruhini tashkil etishi va amortizatsiya ajratmalarining har yilgi summasi, soliq to'lovchining xohishiga ko'ra belgilanadigan amortizatsiya normasini qo'llash yo'li bilan biroq to'plangan xarajatlar summasining 33 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda hisoblab chiqarilishi lozimligi bo'yicha bergan taklifi O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-son Qonuni bilan Soliq kodeksining 311-moddasida o'z aksini topib, amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining 2023-yil 20-maydagi №15-54280-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida foyda solig'i bazasi aniqlashtirilib, byudjetga qo'shimcha mablag' tushishi imkoni ta'minlangan;

foyda solig'i bo'yicha har oyda bo'nak to'lovlarini to'lashi lozim bo'lgan tadbirkorlik subyektlari daromadlarining ruxsat etilgan miqdorini 5 mlrd so'mdan 10 mlrd so'mgacha oshirish bo'yicha taklifi asosida O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 29-dekabrda O'RQ-891-son Qonuni bilan Soliq kodeksining 340 -moddasiga o'zgartirish kiritilgan (**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasining** 2024-yil 21-maydagi № 26/2075-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, Soliq kodeksining 340-moddasi "jami daromadi joriy soliq davridan oldingi soliq davri uchun kiritilgan tuzatishlar hisobga olingan holda o'n milliard so'mdan oshadigan soliq to'lovchilar ushbu moddaning uchinchi - oltinchi qismlariga muvofiq hisoblab chiqarilgan har oylik bo'nak to'lovlarini hisobot davri har bir oyining yigirma uchinchi kunidan kechiktirmay to'laydi" tahririda bayon etilib, foyda solig'i bo'yicha byudjet tushumlari miqdorini oshishi imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro hamda 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 30 ta ilmiy ish: shu jumladan, 2 ta monografiya, 1 ta o'quv qo'llanma, milliy

OAK e'tirof etgan jurnallarda 17 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 7 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 10 ta ma'ruza va tezislar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 290 betdan iborat.